

**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIYAT FANI  
BILAN BOG'LIQLIK JIHATLARI**

*f.f.f PhD Tursunov Mirzo Mahmudovich  
Husenova Nigina G'affurovna  
BuxDU magistranti*

*Annotatsiya. Ushbu tezida frazeologik birliklarning lingvomadaniyat fani bilan aloqadorligi, frazeologik birliklarda madaniyatning aks etishi, shuningdek, frazeologik birliklarni o'rganishning lingvomadaniyatshunoslikdagi ahamiyati haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar. Lingvomadaniyatshunoslik, frazeologik birliklar, lingvokulterema, til, madaniyat.*

Har bir millat o'zining ma'lum bir milliy an'alariga egadir. Shuningdek, har bir xalqning, millatning o'z milliy an'alarini, urf-odatlarini mavjud. Har bir inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador hisoblanadi. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha – lingvomadaniyatshunoslik fanining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. XX asr oxirlariga kelib esa, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi lingvomadaniyatshunoslik fani rivojlandi.

Lingvomadaniyatshunoslik – “til va madaniyat” orasidagi aloqadorlikni, uning shakllanishi va taraqqiyotini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyat tushunchalarini birgalikda o'rganadigan tilshunoslikning alohida ilmiy sohasi hisoblanadi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvomadaniyatshunoslik fani insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o'rniham o'rganadi.

Lingvomadaniyatshunoslik fanining o'rganish obyekti ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyekti bo'lgan yondashuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyliigi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o'rganadi, hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Hozir lingvomadaniyatshunoslik jahon, xususan, rus, o'zbek tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etilishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A. Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi. Ma'lumki, frazeologizmlar lingvomadaniy jamoaning kundalik empirik, tarixiy yoki ruhiy kechinmalar tajribasini aks ettiruvchi voqelikni obrazli tasavvur etish asosida paydo bo'ladi. Ushbu hodisani N.I.Tolstoy lo'nda va obrazli shaklda quyidagicha tavsiflagan: frazeologizmlar «milliy madaniyat, psixologiya va falsafaning

ko'zgidir». Til va madaniyatning murakkab tabiatli o'zaro munosabatini frazeologik birlik misolida yoritish sermahsul hisoblanadi. Birinchidan, salmoqli frazeologik birliklar milliy-madaniy o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Ikkinchidan, frazeologizmlar u yoki bu madaniy kod sifatida lingvomadaniy jamoa lisonida g'ayriushuriy shaklda saqlanib turadi va bu til va madaniyatning o'zaro dialogini ta'minlashda bog'lovchi ko'priq vazifasini bajaruvchi madaniy konnotatsiyada iz qoldiradigan madaniy mansublikni o'zlashtirish layoqatida aks etadi. Uchinchidan, frazeologizmlarni qayta in'ikos etish layoqati madaniy muhim imperativlarning avloddan avlodga uzatilishiga xizmat qiladi va shuning uchun ham individ ham yaxlit bir millat sifatida o'z-o'zini anglash shakllanishini ta'minlaydi. Madaniy belgililikning asosiy tamoyili denotatning muayyan xalq, davlat yoki davrga mansubligi hisoblanadi. Madaniy o'ziga xos ma'no faqatgina ma'lum jamiyat uchun xarakterli va tavsiflovchi hayot tarzinigina emas, qolaversa tafakkur obrazini ham aks ettiradi. Borliqni idrok etish va aks ettirish nuqtai nazaridan turg'un so'z birikmalarining uch guruhi farqlanadi: a) o'zida olamni idrok etishning umuminsoniy tajribasini biriktiruvchi; b) u yoki bu lingvomadaniy jamoa hayot tarzi bilan bog'langan turli vaziyatlarda orttirilgan tajribani biriktiruvchi; v) muayyan millatning olamni idrok etish tajribasi, olamni milliy o'ziga xos ko'rinishini aks ettiruvchi so'z birikmalari. Birinchi va ikkinchi guruhlar vaziyatga nisbatan borliqni konseptuallashtirishga asoslangan.

Uchinchi guruhning lingvistik ko'rsatgichi tajribani boshqa tilga tavsiflashga asoslanadi. O'zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Chunonchi, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot namunalari sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", N.Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari" nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning "Matnning atropotsentrik tadqiqi" mavzusida gimonografiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvomadaniyatshunoslik fanining mohiyati, predmeti va obykti masalalari o'rganilgan.

Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko'rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o'zining mazmun va ifoda planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko'rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, "lingvokulturema" tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, "zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi". Til madaniyat xazinasini, sandig'i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, forklor va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi. Til - madaniyat tashuvchisi bo'lib, ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi. Til - madaniyatning quroli, vositasi hamda, xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Томахин Т.Д. Лингвострановедческий словарь. -- М., 1999;
2. KODIROVA, H. (2023). "MAVJUD PRAGMATIK KOMMUNIKATSIYA NAZARIYALARIDA "ALDOV/YOLG'ON" NUTQIY AKTLARNING NAMOYON

- BO'LISHI". ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 29(29).  
[https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8919](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8919)
3. KODIROVA, H. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SOXTA DISKURSNING PRAGMATIK PARAMETRLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 29(29).  
[https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8920](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8920)
  4. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). The Term Concept in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 28, 297–302. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/643>
  5. Makhmudovich, T. M. ., & O'rinbekovna, U. M. . (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 46–49.  
<http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1154>
  6. Tursunov Mirzo Makhmudovich, & Akhmedova Gulmira Okhunjonovna. (2022). Analysis of Conceptual Metaphors Used in British Politicians' Speeches. Eurasian Research Bulletin, 7, 43–48. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1015>
  7. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). Categorization in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 28, 351–356. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/653>
  8. Ubaydullayeva Muattar O'rinbekovna. (2022). USAGE OF DIFFERENT STYLISTIC TROPES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR SPECIFIC CHARACTERISTICS. Academia Globe: Inderscience Research, 3(10), 223–227.  
<https://doi.org/10.17605/OSF.IO/ZX3QW>
  9. Ubaydullayeva Muattar O'rinbekovna. (2022). Ingliz tilida frazeologik birliklarning ma'no munosabatlari: ko'p ma'nolilik va omonimiya. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 300–304.  
<https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/116>
  10. Саидова, Мухайё. "Inglizcha poetik terminlarning o'zbek tilida berilishida shakl va mazmun munosabati." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 13.13 (2022).[https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/6714](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6714)
  11. Saidova, M. U. The problem of studying literary terms on figurative language.[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0,5&cluster=9219256601546054307](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0,5&cluster=9219256601546054307)
  12. Mirzo Makhmudovich Tursunov. (2022). ANALYSIS OF SOME ENGLISH IDIOMS CONTAINING POPULAR PROPER NAMES. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 5, 62–67. Retrieved from <http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/98>
  13. Saidova, M. U. The problem of studying literary terms on figurative language.[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0,5&cluster=9219256601546054307](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0,5&cluster=9219256601546054307)
  14. Саидова, М. (2021). THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS. ЛУЕАТИДАГИ ДРАМА АДАБИЙ ТУРИГА ХОС ТЕРМИНЛАРИНИНГ МАЗМУНИЙ ТАДЛИЛИ//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).[https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4453](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4453)